

UDK: 378.147.88

TA'LIM KELAJAGI: DUAL TA'LIM KADRLAR TAYYORLASH TIZIMINI QANDAY O'ZGARTIRMOQDA (GERMANIYA TAJRIBASI)

Axliddin Abdunazarov Abdurashitovich

NamDPI o'quv ishlar prorektori

ahliddinabdunazarov031@gmail.com , +998913404171

ORCID: 0009-0000-5974-7721

Marg'ubaxon Eshnazarova Yunusaliyevna

NamDPI dotsenti, p.f.n.

kmargo22@list.ru, +998911777080

ORCID: 0009-0000-2316-3804

Annotatsiya. Maqolada nazariya va amaliyotni integratsiyalash orqali zamonaviy mehnat bozori talablariga javob beradigan mutaxassislarni tayyorlashda dual ta'limdan foydalanishda Germaniya tajribasini joriy etish, taxlil va tavsiyalar keltirilgan. Shuningdek, dual ta'limning bir nechta afzalliklari, IT sohasidagi foydali xususiyatlari ham yoritib berilgan. Ta'lim muassasalari va korxonalar o'rtasidagi hamkorlikning ahamiyati ta'kidlanib, ushbu ta'limni muvaffaqiyatli joriy etishga xizmat qiladigan pedagogik shart-sharoitlar bayon qilingan.

Kalit so'zlar: dual ta'lim, dual ta'limning avzalliklari, IT sohasi, o'qitish modeli, Germaniya tajribasi

БУДУЩЕЕ ОБРАЗОВАНИЯ: КАК ДУАЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ МЕНЯЕТ РАБОЧУЮ СИЛУ (ОПЫТ ГЕРМАНИИ)

Абдуназаров Ахлиддин Абдурашитович

проректор по учебной работе, PhD, доцент НамГПИ

Эшназарова Маргубахон Юнусалиевна,

к.п.н., доцент НамГПИ

Аннотация. В статье представлены внедрение, анализ и рекомендации Германского опыта использования дуального образования при подготовке специалистов, отвечающих требованиям современного рынка труда, путем интеграции теории и практики. А также, рассматривается несколько преимуществ дуального образования и его полезные особенности в сфере информационных технологий. Подчеркивается значение сотрудничества между образовательными учреждениями и предприятиями, а также описаны педагогические условия, способствующие успешной реализации данного образования.

Ключевые слова: дуальное образование, преимущества дуального образования, сфера информационных технологий, модель обучения, опыт Германии.

THE FUTURE OF EDUCATION: HOW DUAL EDUCATION IS CHANGING THE WORKFORCE (GERMAN EXPERIENCE)

Abdunazarov Akhliddin Abdurashitovich

Vice-Rector for Academic Affairs, PhD, Associate Professor of the NamSPI

Eshnazarova Margubaxon Yunusaliyevna,

Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor of the NamSPI

Annotation. *The article presents the implementation, analysis and recommendations of the German experience of using dual education in training specialists who meet the requirements of the modern labor market by integrating theory and practice. In addition, several advantages of dual education and its useful features in the field of information technology are considered. The importance of cooperation between educational institutions and enterprises is emphasized, and the pedagogical conditions conducive to the successful implementation of this education are described.*

Keywords: *dual education, advantages of dual education, information technology, learning model, German experience.*

KIRISH

Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlari asosida tashkil etilayotgan ish o'rinlarida o'rta bo'g'in kadrlariga bo'lgan ehtiyojning yanada oshishi natijasida oliy va professional ta'lim muassasalarida tashkilotlarning buyurtmalari asosida yil davomida dual ta'lim shaklida o'qitishni yo'lga qo'yish zaruriyati yuzaga kelmoqda.

Shu munosabat bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020 yil 6 noyabrdagi PF-6108-son Farmonida 2021/2022 o'quv yilidan boshlab, amaliyotga yo'naltirilgan ta'lim dasturlarini joriy etish maqsadida professional ta'lim muassasalarida dual ta'lim tizimini joriy etish belgilab berildi. Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 29.03.2021 yildagi 163-sonli Professional ta'lim tizimida dual ta'limni tashkil etish chora-tadbirlari haqidagi qarori, 07.12.2023 yildagi 647-sonli Professional ta'lim muassasalariga yil davomida o'quvchilarni dual ta'lim shaklida o'qishga qabul qilish tizimi joriy etilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish

to'g'risida, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 3-iyuldagi "Ma'muriy islohotlar doirasida oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-200-son qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 16.01.2025 yildagi "Oliy ta'lim tizimida dual ta'limni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risidagi" 14-sonli qarorlarida quyidagi vazifalar belgilab berilgan[1]:

- dual ta'limni takomillashtirish va metodik ta'minotini mustahkamlash yuzasidan ilg'or xalqaro tajribalarni tizimli o'rganish ishlarini tashkil etish;
- mehnat bozori uchun raqobatbardosh o'rta bo'g'in kadrlarini tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish hamda o'quvchilarni dual ta'lim shaklida qabul qilishning yangi mexanizmlarini joriy etish;
- tashkilotlardan biriktirilgan ustozlarning pedagogik mahoratini ixtiyoriy ravishda oshirish uchun har yili dual ta'lim shakli bo'yicha bepul qisqa muddatli malaka oshirish kurslarini tashkil etish;
- dual ta'lim shakli joriy etilgan kasb va mutaxassisliklar bo'yicha tegishli ta'lim dasturlarini takomillashtirsin hamda Germaniya tajribasi asosida metodik materiallarni ishlab chiqish.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Qarorlarda belgilab berilgan vazifalardan kelib chiqib ushbu maqolada dual ta'limni kelib chiqishi, rivojlanishi, huquqiy asoslari, pedagogik asoslari, afzalligi va AT sohasidagi xususiyatlari hamda Germaniya tajribasini o'rganishni oldimizga maqsad qilib oldik.

XVIII asrning o'rtalarida, dual ta'lim o'ziga xos shaklda Fransiya va Germaniyada tashkil etila boshlandi. Bu davrda, o'qitishni amaliy ish bilan birlashtirish bilan birga va talabalarni amaliy ko'nikmalari ham rivojlantirildi. Bundan tashqari, dual ta'lim kasb-hunarli kadrlarni tayyorlash katta ahamiyatga ega bo'ldi.

Dual ta'lim ilk bor 1911 yilda Avstraliyada paydo bo'lib, "Cooperative Engineering Course" nomi bilan mashhur bo'lgan kursni o'z ichiga olgan. Bu dars amaliy ish bilan birlashtirilgan o'qitishning eng qadimgi namunalaridan biri sifatida hisoblanadi.

1950-yillarda ish joyida amaliyot bilan bir qatorda talabalarni kasb-hunar bo'yicha malakalarini rivojlantirish uchun kasb-hunar kollejlari tomonidan "cooperative education" yoki "work-study programs" o'qitish tizimlari tashkil etila boshlandi. Bu tizim talabalarga ishlab chiqarish bilan birga amaliy mashg'ulotlarda o'rganish imkoniyatini beradi.

XX asrning 60-70 yillari davomida, dual ta'lim tizimlari hukumat va korxona hamkorligi bilan rivojlandi. Bu usul korxonalar tomonidan kasb-hunarli kadrlarni tayyorlashda xizmat qilish uchun joriy etildi. Hukumat va korxona hamkorligida kasb-hunarli kadrlar tomonidan ishlab chiqarish va innovatsion texnologiyalarini rivojlantirishda yuqori darajali malaka va tajribaga ega bo'lish imkoniyati yuzasidan o'rgatishni osonlashtirishga harakat qilindi.

1980-yillarda Germaniyada "dual system of vocational education and training" dasturiy shaklda rivojlandi. Bu dastur, universitet tizimida o'qitishdan mustaqil tarzda amaliy ishga intilishni talab etadi. Bu model yuzlab ko'plab mamlakatlarda qabul qilingan va bugungi kunda dual ta'limning eng mashhur namunalaridan biri hisoblanadi.

Pedersen va Schmidt dual ta'limni Yevropaning turli mamlakatlaridagi oliy ta'lim tizimlarida muvaffaqiyatli tatbiq etish tajribalarini o'rganishgan va shunga asoslanib, ta'lim tizimini innovatsiyalar hamda amaliyotga yo'naltirishning zarurligini ta'kidlaganlar[2].

Rossiyalik tadqiqotchilar ham dual ta'lim tizimini rivojlantirishga e'tibor qaratganlar. Masalan, R. Xusainov tomonidan olib borilgan izlanishlarda, yuqori texnologiyalardan foydalanish orqali dual ta'limni samarali tashkil etish metodlari tahlil qilingan. Tadqiqotchining fikricha, zamonaviy pedagogik metodlar va innovatsion texnologiyalarni qo'llash orqali, dual ta'lim tizimining samaradorligini sezilarli darajada oshirish mumkin. Bu metodlar talabalarga ta'limni nafaqat nazariy bilimlar asosida, balki interaktiv va amaliy shakllarda olib borishni ta'minlaydi[3].

Dual ta'limning XXI asrda rivojlanishi, xususan, kasb-hunarli kadrlar tayyorlash sohasidagi ish bilan o'qitishni oshirishga qaratilgan ko'plab xalqlar tomonidan keng qo'llanilishi bilan bog'liq. Bugungi kunda, dual ta'limning rivojlanishi dunyoning bir

nechta mamlakatlarida keng joriy etilmoqda va o'qitishning o'zlashtirish tomoni bilan bir qatorda kasb-hunarli kadrlar tayyorlashning zaruriy qismiga aylandi.

"Dual" so'zi lotin tilidan olingan bo'lib, biror ob'ektni ikki qismga ajratilishi, ikkita ob'ektni ifodalovchi degan ma'noni bildiradi.

Dual ta'lim — bu nazariya va amaliyotni uyg'unlashtiruvchi ta'lim tizimi bo'lib, uning maqsadi yoshlarni ishlab chiqarishdagi aniq malaka va bilimlarga ega bo'lgan mutaxassislar qilib tayyorlashdir.

Germaniyada dual ta'lim tizimi tez sur'atlar bilan o'sib borayotgan va talab qilinadigan tizimdir, shuning uchun dual ta'lim dasturlari kasbiy sohaga katta ahamiyat beradi.

Ushbu tizimi asosan ishlab chiqarish, iqtisodiyot, biznes, IT sohalarida malakali va biznes olamiga moslasha oladigan mutaxassislarni tayyorlashni maqsad qilgan. Ushbu sohadagi dasturlarda talabalar tegishli korxonalarda ham bo'lib o'tadigan nazariy kurslarda qatnashadilar va ishlash orqali amaliy tajribaga ega bo'ladilar.

NATIJA

2023 yil iyun oyida davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev boshchiligidagi o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida professional ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish va Germaniya tajribasi asosida dual ta'limni amaliyotga samarali joriy etish bo'yicha bir qator vazifalar belgilab berilgan edi. Biz bilamizki, Germaniya o'zining ta'lim tizimiga dual ta'limni bir necha yillar oldin joriy qilgan.

Germaniyada dual ta'lim rivojlanishining asosiy omili qonunchilikda dual ta'lim ishtirokchilarining (korxona, talaba, ta'lim muassasasi) vazifalari va majburiyatlari aniq belgilab qo'yilgan.

Bugungi kunda Germaniyada 1,4 million yoshlar dual ta'lim shaklida ta'lim olishadi. Germaniyada har yili 500 ming yoshlar dual ta'limda ishtirok etish uchun korxonalar bilan shartnoma imzolashga erishadi va 74 foiz yoshlar o'qishni yakunlagandan so'ng ishberuvchi bilan mehnat shartnomasi imzolashga erishadi. Korxona tomonidan yoshlarga malakali va maxsus sinovdan o'tgan hamda sertifikatga ega bo'lgan ustoz biriktiriladi. Hattoki o'quvchilarni kasbga yo'naltirish va kasblar to'g'risida tushunchaga ega bo'lishi uchun 7-sinfdan boshlab o'quvchilar korxonalarda yiliga 2-4 haftalik tanishuv (stajirovka) o'tashadi. Yoshlar o'zlari

borgan korxona va tashkilotlar faoliyati bilan tanishib, kasblar to'g'risida ma'lumotga ega bo'lgandan so'ng, o'zi qiziqish bildirgan kasb bo'yicha korxona va tashkilotlar bilan shartnoma imzolaydi va dual ta'limda tahsil olish uchun ta'lim muassasasiga ushbu imzolangan shartnoma bilan hujjatlarini topshiradi. Ushbu ta'limda ishtirok etayotgan ta'lim oluvchilarga ish beruvchi tomonidan oyiga o'rtacha 930-1200 yevro oylik ish haqi to'lanadi [4].

Germaniyada dual ta'lim tizimini bir necha bosqichlarga ajratish mumkin:



1. **Maktabgacha ta'lim:** maktabgacha ta'limga tegishli bo'lib, asosan bolalar bog'chalari, tayyorlov guruhleri bo'lib, bunda bolalarning ushbu ta'limga qatnashishlari majburiy emas.

2. **Boshlang'ich ta'lim:** boshlang'ich maktab, unga o'quvchilar 6 yoshdan boshlab qatnashishlari mumkin. O'qish muddati 4 yil (faqatgina Berlin va Brandenburgda 6 yil). Bu bosqichdagi ta'limning maqsadi – o'quvchilarga maktabda ta'limni davom ettirishga imkon beruvchi asosiy bilimlarni berishdan iborat.

3. **Ta'limning o'rta bosqichi** ("yo'nalishli bosqich"): o'quvchilarning iqtidoriga ko'ra o'quv muassasalarni kerakli turiga yo'naltiradi, masalan: asosiy maktab, real maktab, gimnaziya, kompleks maktab. Attestat hujjati bitiruvchi o'quvchilarga yuqorida keltirilgan maktablardan birini yakunlagach taqdim etiladi.

4. **Ta'limning yuqori bosqichiga** maktablarning yuqori sinflari, shuningdek kasbiy ta'lim muassasalari kiradi. Muassasalarda kasbiy ta'lim "dual ta'lim" deb ham ataladi, unda ta'lim va ishlab chiqarish amaliyoti 2 yil davomida olib boriladi, bu o'qishni tugatish o'rta ta'limni tugatish bilan teng bo'lib, yakunida faqat kasbiy sohada o'qishni davom ettirish mumkin. Gimnaziyada 3 yil o'qib, o'quvchilar umumiy

shahodatnoma “yetuklik attestati”ni oladilar, bu ularga istagan oliy o’quv yurtiga kirishga imkon beradi.

5. Ta’limning oliy bosqichi oliy ma’lumot haqida diplom beruvchi oliy o’quv yurtlari va malaka oshirish o’quv muassasalari hisoblanadi.

Germaniyada dual ta’limning yana bir muhim jihati shundaki, talabalar universitetda o’qish vaqtida nafaqat nazariy bilimlar, balki amaliy tajribaga ham ega bo’ladilar. Amaliyot vaqti butunlay boshqacha tarzda taqsimlanishi mumkin. Ba’zi hollarda talabalar haftada 2 kun ma’ruzalarga borishi, qolgan 3 kun esa korxonada ishlashi mumkin. Shuningdek, talabalar 3 oy o’qiydigan, so’ngra 3 oy ishlaydigan vaqtlarga ham ajratilishi mumkin.

Germaniyada dual ta’lim tizimi nazariy va amaliy bilimlarni samarali uyg’unlashtirishdagi yetakchi modellardan biri hisoblanadi. Bu tizim orqali talabalar nazariy bilimlarini ish joyida amaliy ko’nikmalar bilan boyitadilar. Dual ta’lim tizimi faqatgina talabalarning professional rivojlanishiga xizmat qilmay, balki ish beruvchilar uchun malakali kadrlarni tayyorlash jarayonini ham tezlashtiradi.

Germaniya tajribasi shuni ko’rsatadiki, bu kabi hamkorlik iqtisodiyotni rivojlantirishga, ishsizlik darajasini kamaytirishga va yoshlarning kasbiy manfaatdorligini oshirishga katta hissa qo’shadi.

Germaniyaning ushbu ta’lim tizimi ko’plab mamlakatlar uchun namuna bo’lib, ularning ishchi kuchining raqobatdoshligini oshirish va ta’lim tizimlarini takomillashtirishga yordam beradi. Shuningdek, dual ta’lim tizimi oila va ijtimoiy jihatdan ham muhim ahamiyatga ega, chunki u o’suvchi yoshlarga o’z kasbini tanlashda yordam beradi va ularni mustaqil hayotga tayyorlaydi.

Kasbiy faoliyatda dual talimdan foydalanishning bir nechta afzaligini sanab o’tamiz:

1. Talabalarni mustaqil o’zlashtirish imkoniyati: Dual talim talabalarda faol ishtirokini oshiradi. Bunda talabalar, o’zlarining faolligini ko’rsata olish, fikr bildirish, savollar va muammolarga javob berish orqali o’zlashtirish imkoniyatiga ega bo’ladi.

2. Ijtimoiy hamkorlik va erkin muloqot: Dual talimda ko’rgazma va erkin muloqot o’quv jarayonini mustaqil o’zlashtirishga imkon beradi. Professor -

o'qituvchilar bir-biriga ko'maklashishadi, o'quv resurslarni tayyorlashda va talabalarni baholashda hamkorlik qilishadi. Bu hamkorlik va muloqotlar, ta'lim sifatini oshirishga imkon beradi.

3. Ijodiy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish: Dual talim, talabalarda ijodiy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Talabalar o'zlarining fikrlarini tahlil qilish, professor-o'qituvchilarning maslahatlarini hisobga olish, savollar tayorlash, muammolarni tahlil qilish orqali o'zlarining bilim olish qobiliyatlarini rivojlantiradilar.

4. Tarbiyalanish va qadriyat: Dual talim, talabalarni hamkorlik, hurmat, ishbilarmonlik va boshqa ijtimoiy qadriyatlar asosida tarbiyalashga yordam beradi.

5. Ta'lim sifati: Dual talimda qo'shimcha ta'lim metodlarini qo'llash, talabalarda mustaqil o'zlashtirish samaradorligini oshirishga olib keladi.

Axborot texnologiyalari sohasida ham dual ta'limning bir nechta foydali xususiyatlari mavjuddir:

1. Amaliyotga tayyorlash: Dual ta'lim tizimi talabalarga axborot texnologiyalari sohasi bo'yicha amaliyot bilimlarini o'zlashtirish imkonini beradi. Talabalar axborot texnologiyalari sohalarida dasturlash, tarmoq texnologiyalariga oid masala va muammolarni yechish kabi jarayonlarda ishtirok etib amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishlari mumkin.

2. Kasbiy tajriba: Dual ta'lim tizimi talabalarda AT sohasi bo'yicha kasbiy tajribani oshirishga imkon beradi. Ish joyida talabalar ish haqini oldindan bilish, ish bilan bog'liq vazifalarni bajarganliklarini kuzatish orqali kasbiy tajribani oshirishlari mumkin.

3. Soha bilan integratsiya: Dual ta'lim, talabalarni IT sohasiga integratsiya qilishga yordam beradi. Ish joyida talabalar, yangi texnologiyalar, dasturlar bilan tanishishlari hamda soha bo'yicha malaka va ko'nikmalarini oshirishlari mumkin. Shu bilan birga, ular ish tajribasi bilan integratsiyani amalga oshiradi.

4. Muvaffaqiyat imkoniyatlari: Dual ta'lim talabalarga muvaffaqiyatlilik imkoniyatlarini beradi. IT sohasida kasb o'rganish orqali, talabalar mehnat bozoridagi ish o'rinlarida muvaffaqiyatli ish topishlari uchun imkoniyat yaratiladi.

Bunda, ularning amaliyotdagi tajribalarini ta'limdagi bilim va ko'nikmalar bilan birlashtirishadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR.

Shuning uchun Germaniya dual ta'lim tizimini O'zbekistonga ham joriy qilish, o'quv jarayonini modernizatsiya qilish va talabalarning mehnat bozoriga moslashuvchanligini oshirishda muhim ahamiyatga ega bo'lishi mumkin.

Germaniya dual ta'limini o'rganish asosida quyidagi **takliflarni** bermoqchimiz:

1. Germaniyaning dual ta'lim tizimini tajriba tariqasida joriy etib ko'rish;
2. Germaniya dual ta'lim tizimini professional ta'lim tizimiga keng qo'llash;
3. Mutaxassis kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirishda dual ta'limdan foydalanish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Namangan davlat pedagogika institutida ham yuqoridagi qaror va buyruqlarni ijrosini ta'minlash maqsadida rektorimiz B.E.Xusanovning ham buyruqlari qabul qilingan bo'lib, ushbu buyruqda talabalarning "4+2" amaliyotini dual ta'lim bilan integratsiya qilish, texnologik ta'lim, amaliy matematika, kimyo, biologiya yo'nalish talabalar uchun o'quv jarayonini dual ta'lim asosida tashkil etishda ishlab "Asadbek savdo servis" mas'uliyati cheklangan jamiyati, Namangan shahar IT Park, "Monomarkaz" MChJ, MexMash aksiyadorlik jamiyati, "UZCHASYS" MChJ o'zbek-koreya qo'shma korxonalar bilan shartnomalar tuzish vazifalari belgilab berilgan.

Ushbu muhim vazifalarni amalga oshirish, dual ta'limni rivojlantirish maqsadida institutimiz jamoasi sayi harakatlar qilib kelmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. <https://lex.uz/docs/-7332601?query=dual%20ta%27lim&exact=1#sr-1>
2. Pedersen, M., Schmidt, N. (2019). "Integration of dual education systems into higher education in Europe". *European Journal of Education*, 12(3), 45-67.
3. Xusainov, R. (2021). "Dual ta'limni rivojlantirishda innovatsion yondashuvlar". *Pedagogik nazariya va amaliyot*. 5(4), 120-135.
4. Baymurova N. "Dual ta'limi asosida talabalar kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish." *Pedagog*. 6.12(2023), -B.11-14.
5. Jaloldinova O. "Professional ta'lim tizimida dual ta'lim shaklini tashkil etishning ijobiy tomonlari". *Technical science research in Uzbekistan*. 1.5 (2023), -B. 515-521.

6. Shodmonova M. Dual ta'limni amaliyotda qo'llash. Science and innovation international scientific journal. 2022 № 3, -B. 356-358
7. Turamuratov U. "Dual ta'lim tizimida kadrlar tayorlashning jahon mamlakatlari tajribasi". Ijodkor o'qituvchi. 3.30 (2023), -B.19-26.